

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA'MURIY CHEKLASH CHORALARINI QO'LLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Utepov Dilmurod Sheralievich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kata o'qituvchisi

Karimov Suhrobbek Komiljon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi

310-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14203478>

Anotatsiya. Maqolada profilaktika inspektorining mamuriy cheklash choralari qo'llashga doir faoliyatni yanada takomillashtirishning o'ziga hos xususiyatlari va uning bugungi kundagi tutgan o'rni, ahamiyati haqida so'z boradi.

Annotation. The article talks about the specific features of further improvement of the activities of the prevention inspector on the application of administrative restriction measures and his role and importance today.

Kalit so'zlar: ma'muriy nazorat, ma'muriy cheklash, ma'muriy cheklash turlari, huquqbuzar, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxs, profilaktik tadbirlar.

Keywords: administrative control, administrative restriction, types of administrative restriction, offender, person with antisocial behavior, preventive measures.

O'zbekiston Respublikasining "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonuni shu yilning 2 aprel kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolaniib, kuchga kirdi. Ushbu hujjat jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Ma'muriy nazorat - nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklovlarni qo'llashdan iborat tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish choralaridir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida quydagi tushunchalarga ta'rif berilgan:

ma'muriy nazorat — nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklovlarni qo'llashdan iborat tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish choralari majmui;

ma'muriy cheklov — huquqlar va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimmaga majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadi;

nazorat ostidagi shaxs — o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat amalga oshirilayotgan shaxs;

nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi (yashash joyi) — nazorat ostidagi shaxs doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan turar joy¹

Bugungi kunda huquqbuzarliklarni oldini olish fuqarolar orasida qonunlarga bir hilda va aniq rioya qilishlari ustidan qat'iy chora-tadbirlarni amalga oshirish har kungidan dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan qonunchilik tizimida ham bir qator o'zgarish va qo'shimchalar kiritilib yanada takomillashtirilib bormoqda. Bu borada qonunlarning ijrosini ta'minlash va fuqarolarning huquqiy bilimini yuksaltirish, huquqbuzarlik sodir etgan

¹ „Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi 2019-yil 2-aprel, O'RQ-532-son qonuni

shaxslarning qayta huquqbuzarlik sodir etishini oldini olishga doir masalalarni hal etish borasidfa eng samarali mehnat olib borayotgan Ichki ishlar organlarining mahallalardagi profilaktika inspektorlarining xizmatlarini alohida takidlash joiz. Aynan profilaktika inspektorlari jinoyatlarning oldini olish maqsadida o'z ma'muriy hududda barcha fuqarolar bilan, ayniqsa muqaddam sudlangan shaxslar shu jumladan, ma'muriy nazoratda turuvchi muqaddam sudlangan shaxslar bilan tarbiyaviy profilaktik ishlarni tashkil etuvchi asosiy subyektlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ular nafaqat ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga nisbatan nazorattekshiruv va tarbiyaviy mazmundagi profilaktik tadbirlarni amalga oshiradilar, balki ma'muriy hududdagi barcha fuqarolarga umummajburiy qoidalarga rioya qilishlarini nazorat qiladilar.

Ma'muriy nazorat - davlat va maxsus vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) faoliyatining alohida turi. Ma'muriy nazorat qonuniylikni va davlat intizomini ta'minlash usullaridan biri hisoblanadi. Ma'muriy nazorat davlat organlari, tijorat va notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning davlat va jamiyat rivojlanishi uchun ahamiyatli bo'lgan umummajburiy qoidalarga qat'iy rioya qilishiga qaratilgandir. Ma'muriy cheklov — huquqlar va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimmaga majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadi.

Ma'muriy cheklov - huquq va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimmaga majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadi. Jumladan ma'muriy cheklash choralari sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

- Yashash joyidan sutkaning belgilangan vaqtida tashqarida bo'lishni;
- Muayyan joylarda bo'lishni;
- Sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan ichki ishlar organlarining ruxsatisiz chiqishni;
- Alkogolli ichimliklar iste'mol qilishni taqiqlash;
- Ro'yxatdan o'tish uchun har oyda bir martadan to'rt martagacha ichki ishlar organiga kelish ma'muriy cheklov turlaridir

Xulosa o'rnida Ma'muriy cheklov choralari — davlat tomonidan qonun va qoidalar orqali belgilangan, fuqarolar, tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va majburiyatlarini tartibga solishga qaratilgan tadbirlar majmuidir. Ushbu choralarning muhim ahamiyati quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. **Tartib va xavfsizlikni ta'minlash:** Ma'muriy cheklov choralari tartib-intizomni saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikni oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu chora-tadbirlar orqali xavfsizlikni buzuvchi harakatlarga qarshi ta'sirchan nazorat o'rnatiladi.
2. **Tartibga solish va nazorat:** Bu choralar orqali davlat iqtisodiyot, atrof-muhit, sog'liqni saqlash kabi sohalarni tartibga soladi. Masalan, mehnat qonunchiligidagi qoidalar ishchilarning mehnat huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi, ekologik me'yorlar esa atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan.
3. **Ijtimoiy adolatni ta'minlash:** Ma'muriy cheklov choralari turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini muvozanatlash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va muhtojlarga yordam berish imkonini beradi. Misol uchun, soliqlar orqali kambag'allarga yordam ko'rsatish va ta'limga investitsiya qilish maqsadida davlat resurslari jamg'ariladi.

4. **Bozor mexanizmlarini boshqarish:** Ma'muriy cheklov choralari tadbirkorlik faoliyatini ham tartibga solib, monopoliyalashuvning oldini olish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda sog'lom raqobatni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. **Xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarga javob berish:** Ma'muriy choralar orqali davlat favqulodda vaziyatlarda tezkor choralar ko'radi. Masalan, epidemiyalar vaqtida sog'liqni saqlash choralari kuchaytirilishi yoki ijtimoiy masofa saqlash qoidalari joriy etilishi mumkin.

Bu chora-tadbirlar davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi va barqarorlikni ta'minlash uchun asosiy vositalardan biri bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekistan respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel / <https://lex.uz/docs/-6445145> 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasi, <https://tergov.uz/uz/childs>
2. "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi 2019-yil 2-aprel, O'RQ-532-son qonuni <https://lex.uz/docs/-2156899>
3. IIV Jamoat xavfsizligi departamentining O'zbekiston Milliy axborot agentligiga bergan ma'lumotnomasi 11:36 / 03.10.2023-yil